

DUTOR-O'ZBEK MILLIY CHOLG'ULARINING MALIKASI**Rahimova Mubinaxon Zokirjon qizi**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filial talabasi.

mmubinaff@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15163721>

Annotatsiya. O'zbek milliy cholg'ularining malikasi dutor. Dutor so'zining ma'nosi forsha "ikki tor" degan ma'noni anglatadi. Dutorda yakka zarb, qo'sh zarb, bilak zarb, bidratma zarb, teskari zarb kabi ijro usullari mavjud. O'rta Osiyodagi dutorsimon cholg'ular: o'zbek dutori, uyg'ur dutori, qoraqalpoq dutori, tojik dutori, turkman dutori. Dutor cholg'usida tovush chiqarish.

Kalit so'zlar: yakka zarb, bilak zarb, uyg'ur dutori, panduriy, changuriy, qolmir do'mbirasi, buryat, yakut, ufori zarb, IIV, balalaika, tut daraxti, kvarta, kvinta, qazba, oyma, kurata, dutorlar oilasi, dutor prima, dutor alt, Cholg'u asbobi, Musiqiy meros, Ijrochilik san'ati, Maqom, Orkestr, Kapron tor, Tovush diapazoni, Ijro uslublari, O'zbek musiqasi, An'anaviy san'at.

DUTOR - THE QUEEN OF UZBEK NATIONAL INSTRUMENTS

Abstract. The queen of Uzbek national instruments is the dutor. The word dutor means "two strings" in Persian. The dutor has such playing methods as single stroke, double stroke, wrist stroke, double stroke, reverse stroke. Dutor-like instruments in Central Asia: Uzbek dutor, Uyghur dutor, Karakalpak dutor, Tajik dutor, Turkmen dutor. Making sound on the dutor instrument.

Keywords: single stroke, wrist stroke, Uyghur dutor, panduri, changuri, qalmir drum, Buryat, Yakut, ufori stroke, PV, balalaika, mulberry tree, fourth, fifth, qazba, carving, kurata, dutor family, dutor prima, dutor alt, Musical instrument, Musical heritage, Performing arts, Maqom, Orchestra, Kapron string, Sound range, Performance styles, Uzbek music, Traditional art.

ДУТОР - КОРОЛЕВА УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Аннотация. Королева узбекских национальных инструментов — дутар. Слово «dutor» в переводе с персидского означает «две струны». Существует несколько методов игры на дуторе, такие как одинарный удар, двойной удар, удар запястьем, двойной удар и обратный удар. Дутороподобные инструменты в Средней Азии: узбекский дутор, уйгурский дутор, каракалпакский дутор, таджикский дутор и туркменский дутор. Извлечение звуков на инструменте дутор.

Ключевые слова: одиночный удар, удар запястьем, уйгурский дутор, пандури, чангури, калмирский барабан, бурятский, якутский, уфорский удар, ПВ, балалайка,

тутовое дерево, четвёртый, пятый, газба, резьба, курата, семейство дуторов, дутор прима, дутор альт, Музыкальный инструмент, Музыкальное наследие, Исполнительское искусство, Маком, Оркестр, Нейлоновая струна, Звуковой диапазон, Стили исполнения, Узбекская музыка, Традиционное искусство.

Kirish

Dutor-o'zbek an'anaviy chertma sozlaridan biri. Dutor so'zining ma'nosi forsha "ikki tor" degan ma'noni anglatadi. Dutorning an'anaviy shakllanishi va boshqa cholg'ular bilan uyg'unlik jihatlari uzoq o'tmishga borib taqalsada, musiqiy risolalarda XV asrdanboshlab ta'riflanib keladi.

Dutor cholg'usi usullari odatda dator ijrochiligi o'ng qo'l harakatlari uchun qabul qilingan ifodaviy ko'rsatkichlar mavjud. Dutor cholg'u usullarining (shtrizlarining) zarb yo'nalish belgilari:

II-yuqoridan pastga zarb urish

V- pastdan yuqoriga zarb urish.

Dutorda yakka zarb, qo'sh zarb, bilak zarb, bidratma zarb, qo'sh zarb, ufori zarb, pisikato chalish uslubi mavjud.

Yakka zarb- bunga II- II pastga panja ya'ni 4,3,2,1 barmoqlar bilan dator torlariga urib chalib sadolatiladi. V belgisi esa yuqoriga bosh barmoq bilan chalishni bildiradi.

Terma zarb- IIIIVV belgilari bilan belgilanib, uni quyidagicha to'g'ri hisoblanadi. Bosh barmoq bilan ko'rsatkich barmoqlarning orasi 12-14 sm orich ushlab turib qo'lni avval ko'rsatkich barmoq bilan, keyin bosh barmoq bilan pastga va yana avval bosh barmoq bilan, keyin ko'rsatkich barmoq bilan yuqoriga torlarni chalib tovush chiqariladi. Tovush kuchi teng va tekis bo'lishi kerak.

Teskari zarb deganda kuchli va kuchsiz hissalarining o'ziga xos tartib bilan almashinishi tushuniladi.

Pissikato chalish uslubi-dutor ijrosida balalaika va gitara cholg'ularidan kirib kelgan uslub. U ikki xildir.

Bittalik pissikato-bosh barmoq bilan faqat pastga chalish. Bitta toridan tovush chiqariladi.

O'zbek dutori-xalqimiz sevib ijro qiladigan, keng tarqalgan o'zining o'yinqaroqligi, ba'zan mungli ovozi bilan xalqimizning sevimli ma'likasi. Ijro etish imkoniyatlari juda keng, o'ng qo'l barmoqlari va panjalari zarblari xilma-xildir.

Uyg'ur dutori- chertma cholg'u bo'lib, uyg'ur xalqida keng tarqalgan. Dutor tut daraxti yog'ochidan yasaladi. Simlari ikkita bo'lib, ipak yoki mol ichagidan tayyorlanadi. Yori sim kichik oktava "si" 1-oktava "do", "re" tovushlariga pastki tori kvarta yoki kvintaga sozlanadi.

Qoraqalpoq dutori- O'rta osiyoda keng tarqalgan cholg'ulardan biri bo'lib, ikki simli chertma, kattagina noksimon shaklga ega. Uzun dastasida 13-15 ta pardalar joylashgan. Dutor ikki xil yasaladi.

Kosasi yaxlit o'yib ishlangan "Qazba" yoki "Oyma" qovurg'ali. Uning dastasi nisbatan biroz ingichkaroq bo'lib, unda tovush chiqarish asosan o'ng qo'l bilan torlarni yuqori va pastga qarab urish bilan hosil qilinadi. Barmoqlar erkin va bir maromda harakatlanishi kerak. Pastga ko'rsatkich barmoq bilan, yuqoriga esa bosh barmoq bilan zarba beriladi. Bu ikki barmoq bir biri bilan bir ovoz yopishgan bo'lib, yuqoriga qarab urganda bosh barmoq ko'rsatkich barmoqdan biroz chap tomonga qochadi. Bunday chalish usuli yakka zarb deyiladi va quyidagi belgilar bilan ifodalanadi.

1. K-panja va o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'I bilan pastga qarab chalish
2. B- panja va o'ng qo'lning bosh barmog'I bilan yuqoriga chalish

Notalarning dutorda joylashuvini o'rganib olib, turli xil cho'zimga ega bo'lan notalar, takt o'lchovlari va sanoq bilan tanishib chiqqach, birinchi mashqni bajarish mumkin.

Ilk mashq ikki notadan yuqoriga "lya" pastga "mi"dan iborat. "lya" notasi dutorda birinchi ochiq torda "mi" notasi ikkinchi ochiq torda olinadi. Notalarning bir birining ustiga yorilganligi bu ikki notaning bir vaqtga olish kerakligini ko'rsatadi.

Dutorda usullarning harfiy belgilari:

K-ko'rsatkich barmoq bilan zarb urish

B3- bilak bilan zarb urish

B-bosh barmoq bilan zarb urish

Pizz- pissikato (barmoq chertmak)

Tr-tremolo ko'rsatkich barmoq bilan uzluksiz chertish

Ж-jimjiloq bilan zarb urish

Dutorlar oilasi:

Dutor alt cholg'usi o'rta registrga ega bo'lgan yana bir cholg'u bo'lib, an'anaviy dator asosida yasalgan. Ipak torlari o'rniga kapron tor tortilgan. Dutor alt cholg'usi xromatik tovushqatorga ega. Torlari esa kvarta bo'yicha kichik oktavadagi "mi" va "lya" tovushlariga sozlanadi. Bu cholg'u nafaqat orkestrlarda balki yakkanavozlik va jo'rnavozlik vazifalarini bajaradi.

Dutor prima-bu cholg'u dutorning kichraytirilgan turi. Buning qopqog'I tut o'rniga archa daraxtidan qilinadi. Uning torlari kapron tordan tortiladi. Pardalar dastasini o'yib xromatik holda doimiy o'rnashtirilgan. Torlari esa kvarta bo'yicha birinchi oktava Dutor prima orkestrda solo chalish va jo'rnavozlik vazifasini bajaradi. Dutor prima 460mm menzuraga ega.

Dutor sekunda- yangi ishlangan dutorlar oilasiga kiruvchi ushbu dutor-sekunda cholg'usi, ovoz jihatidan o'rtacha registrda. Uning ham torlari ikki ipak tordan iborat bo'lib, kvarta oralig'ida sozlanadi. Tashqi ko'rinishi dutor primadan biro z kattaroq shaklda ishlangan, ya'ni dutorning kosasi bir xil bo'lib, dastasining uzunligi har xil bo'ladi. Dutor-bas va dutor-kontrobas cholg'u asboblarning kosasi kata bo'ladi.

Xulosa.

Dutor cholg'usining nozik ohangi va keng ifoda imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Dutor o'zbek xalq musiqa merosining ajralmas qismi bo'lgan badiiy va amaliy an'analarni o'zida mujassam etadi. Uning ohanglari xalq qo'shiqlari, maqomlar va zamonaviy ijrochilikda keng foydalaniladi. Bugungi kunda dutor nafaqat an'anaviy ijrochilikda, balki yangi musiqiy yo'nalishlarda ham o'z o'rniga ega bo'lib, milliy musiqamizning rivojiga hissa qo'shmoqda.

REFERENCES

1. O Qosimov "Dutor taronalari" T., 1978
2. M.A.Asilov, F.M,Vasilev "Dutor darsligi" T.,1977
3. A Ilyosov "Dutor o'rganish kitobi" T.,1966
4. M.A. Asilov, F.N. Vasilev "Dutor darsligi" -T.,2018.
5. G Muhammedova "Dutor darsligi". T.,2005